TOG‘AY MUROD NASRIDA XALQONA TIL VA FOLKLOR POETIKASINING NAZARIY ASOSLARI

Safarova E’zoza Bahodir qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
magistranti
+998945100210
safarovaezoza3@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tog‘ay Murod qissalaridagi milliy qadriyatlar talqini va xalqona tili va folklor poetikasintahlilga olingan bo‘lib, unda ijodkor asarlari qahramonlarining umuminsoniy va milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatlariga fikrlar bildirilgan va misollar tarzda tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Adib, qo‘llanma, so‘z san’ati, badiiy til, munosabat, adabiyot, tanqid, munosabat, darslik, ijod.*

Abstract: *This article analyzes the interpretation of national values, folk language and folklore poetics in the stories of the national writer of Uzbekistan, Togay Murod, in which the attitude of the heroes of the creative work to universal and national values is expressed and analyzed in the form of examples.*

Keywords: *Writer, manual, word art, artistic language, attitude, literature, criticism, attitude, textbook, creativity.*

Аннотация: *В данной статье анализируется интерпретация национальных ценностей, народного языка и фольклорной поэтики в произведениях национального писателя Узбекистана Тогая Мурода, в*

которых на примерах выражено и проанализировано отношение героев творческого труда к универсальным и национальным ценностям.

Ключевые слова: *писатель, руководство, искусство слова, художественный язык, отношение, литература, критика, отношение, учебник, творчество.*

Tog‘ay Murodning barcha asarlari xalq tilida yaratilganligi uchun ham, badiiy qiymatini yo‘qotmagan desak, haqiqatga yaqin bo‘ladi. Darhaqiqat, yozuvchining to‘rtta qissasini o‘qib, tahlil qilar ekanman, barchasida o‘tkir emotsional ta’siri kuchligi sababli o‘quvchini hayajonga soladi, to‘lqinlantiradi. Har bir ijodkor o‘ziga xos uslub yaratadi. Bir so‘z bilan aytganda Tog‘ay Murod hech qaysi yozuvchida uchramaydigan uslubda ijod qildi, o‘zining nomini adabiyotga o‘chmas qilib muhrlab ketdi.

Qadimdan adib va mutafakkirlar yakdillik bilan badiiy adabiyotni “so‘z san’ati” deb ta’riflashadi. Darslik va qo‘llanmalarda ham badiiy tilning muhim jihati ta’kidlanadi: “Tasviriylik va emotsionallik badiiy tilning asosiy xususiyatlaridir”. So‘z san’ati barcha zamonlarda ham adabiyotning, demakki, tanqid va adabiyotshunoslikning ham mangu muammolaridan biri bo‘lib kelgan. Chunki so‘zeng avvalo-fikr-tuyg‘u, ijod, bebaho ruhiy ne’mat.”. Ko‘plab shoir-yozuvchilar va olimlar “Adabiyot tildan boshlanadi” (O.Sharafiddinov) deyishlari ham bejiz emas. Barcha ulug‘ adiblar badiiy asar tiliga va undagi har bir so‘z va iboraga alohida e’tibor bilan munosabatda bo‘lishgan. Asrlar davomida rivojlanib davom etib kelgan bu an’ana badiiy ijodning muqaddas bir qonuniyatiga aylangan. Shunday xususiyat va talabchanlik Tog‘ay Murod asarlari tiliga ham xosligini misollar tahlili yaqqol ko‘rsatishi mumkin. Ona tilimiz va adabiyotimizning buyuk yalovbardori Navoiy va unga izdosh bo‘lgan adiblarimiz kabi Tog‘ay Murodning badiiy til

haqidagi fikrlari va baxshiyona mushohadalari ham o‘zaro yaqin va hamohang, ular bilan mushtarak: ”Badiiy asar-bir minora. Asar poydevori -til...Yozuvchi asari bilan adabiyotni egallaydi. Adabiyot- ulkan bir qasr. Asl ijodkor adabiyot qasrini o‘z asari bilan zabt etadi. Asl ijodkor el-yurtga “ura-ura” gaplari bilan emas, badiiy asarlari bilan xizmat qiladi,” -degan edi Tog‘ay Murod. Adibning haqiqiy badiiy asar tili uchun kurashi hech qachon biryoqlama, ya’ni mukammal shakl uchungina bo‘lmay, balki u ayni paytda chuqur mazmun va yuksak g‘oyaviylik uchun ham kurashish edi. Aslida, bundan boshqacha bo‘lishi mumkin ham emas. Chunki til shunchaki tashqi bir bezak yoki libos bo‘lib emas, balki asar mazmunining, yozuvchi g‘oyaviy-estetik maqsadining badiiy ifodasi bo‘lib yashaydi. Badiiy asar tiliga bu qadar jiddiy e’tibor berishga yana bir muhim sabab bor. Bu yozuvchining kitobxon oldidagi yuksak mas’uliyat hissidir.

Har-bir asarda muallif yashab o‘tgan makon va zamon, ijtimoiy muhit aks etib turadi. Tabiiyki, muallif qaysi millat vakili ekanligi yozuvchi tomonidan yozilgan asarda yarq etib ko‘zga tashlanadi. Dunyodagi har-qanday millat vakillari o‘ziga xos milliy va umuminsoniy qadriyatlarga ega ekanligi bilan birbiridan keskin farqlanadi. Yozuvchi Tog‘ay Murodning ‘‘Oydinda yurgan odamlar’’qissasi barcha o‘quvchi ommasiga ma’lumki, bu asar hayot qiyinchiliklariga dosh bergan ikki taqdir haqidagi doston desak, chin ma’noda biz adashmagan bo‘lamiz. Shuningdek yozuvchi Odil Yoqubov “Muhabbat haqidagi bir kuy, to‘g‘rirog‘i muhabbatga suyanib,barcha hayot dovullarini yengib o‘tgan ikki dil, ikki pok inson haqidagi tipik bir qo‘shiq desak yarashadi” degan fikrida juda katta badiiy haqiqat bor. Asar 3 bobdan iborat bo‘lib, ilk bobi asar qahramonlari Qoplonbek va Oymomoning to‘y marosimlari shunday mahorat bilan tasvirlanadiki, o‘zbegimning so‘nmas qadriyatlari, urf- odatlari, rasm-rusmlari o‘quvchi ko‘z oldida yaqqol

gavdalanadi Turkiy xalqlarning qadim dostonchilik ananalari asosida, xalq og‘zaki ijodi sifatida, yaxlit doston nomini olgan Alpomish dostoni ming yillik tarixga ega ekanligi barchamizga ma’lumdir. Qissada keltirilgan marosimlarning ildizi borib Alpomish dostonidagi voqealarga borib taqalishi, asar badiiy qiymatini oshirganKitobxon, ustoz adiblar fikricha, kattakon bilimdon, yuksak did egasi. Bu xulosa ko‘pgina taniqli yozuvchilarning fikrlari bilan hamohang. Said Ahmad xotiralarida guvohlik berishicha, Tog‘ay Murod “Men hech kimdan qo‘rqmayman. Faqat kitobxondan qo‘rqaman”, degan ekan.Bunday kitobxon uchun asar yozish yozuvchidan qanchalar mas’uliyat va iqtidor talab qilishi so‘zsiz ayondir Adabiyotshunoslikda yetuk san’at asarlarini xalq hayoti va ruhiyatining ko‘zgusi deb atashadi. Binobarin, bu an’anaviy ta’rifni Tog‘ay Murod asarlariga nisbatan ham bemalol qo‘llash mumkin. Mumtoz adabiyotimizning yetuk namunalarida uchraydigan tabiiylik va hayotiy soddalik, asar mazmun- ruhiga uyg‘un ohangdorlik, qahramonlar ruhiyati, siyrat va holatiga monand so‘z-ifoda topa bilish, shuningdek, jonli so‘zlashuv nutqi va Surxon sheva unsurlaridan me’yorida va ijodkorona foydalana bilish- Tog‘ay Murod uslubining yorqin jihatlaridir. Chunonchi, “Ot kishnagan oqshom” qissasi ning tili qanchalik chuqur milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan bo‘lsa, xalq hikmatlari va purma’no hazil-mutoyibalari hamda nozik qochirimlari bilan ham shu darajada omuxta bo‘lib ketgan. Tog‘ay Murodning boshqa asarlari singari mazkur qissa tilida ham ko‘plab so‘z-ifodalar baxshiyona bir mahorat bilan takror va juft holda qo‘llanadi. Bular adibniig qator yangi so‘z-iboralari bilan birgalikda hozirgi nasrimiz va umuman, adabiy tilimizni boyituvchi va jilolantiruvchi qimmatli bir manba – o‘ziga xos xalqchil bir uslub namunasi sifatida alohida o‘rganishni taqozo qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish joizk, Tog‘ay Murodning adabiyotimizga bamisoli yangi bir epkin olib kirgan va ko‘p jihatdan xalq doston- termalari, maqol va naqllarini eslatuvchi, shaklan ixcham, mazmunan teran, tagdor so‘z-iboralarga boy bo‘lgan ohangdor tili va turkona uslubi adabiy jamoatchilikning diqqatini o‘ziga rom etganligi endilikda isbot talab qilmaydigan muhim bir haqiqatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Folkner U. Qora musiqa. Yangi asr avlodi: T: 2018yil 4 bet 5.www.ziyouz.com1.N.Shukurov,
N.Hotamov,M.Mahmudov.Adabiyotshunoslikka kirish.-T.:1979.117-b
2. Tog‘ay Murod.Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi. .-T.:2001.186-b
3. Said Ahmad. So‘z zargari.Men qaytib kelaman .-T.:2007.6-b
4. Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. -T.:1994.169-b 1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish . T: A Qodiriy nomidagi xalq merosi 2004 yil
5. Murod T. Oydinda yurgan odamlar qissalar hikoyalar G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti T.1985 y
6. Jo’raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr, Xronotop. G’.G’ulom nomidagi nashriyot manbaa ijodiy uyi T:2015 yil,148-150 bet.